

DIGITAL BUSINESS MANAGEMENT_WEEK_11. THE BEGINNING OF THE DIGITAL REVOLUTION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IS THE CONCEPT OF THE NATIONAL STRATEGY "DIGITAL UZBEKISTAN - 2030"

RAQAMLI BIZNES BOSHQARUVI_11_O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI INQILOBNING BOSHLANISHI “RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” MILLIY STRATEGIYASI KONSEPTSIYASI

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

raqamlashtirilishi zarur bo‘lgan jami 715 ta davlat xizmatidan 370 tasi raqamli platformaga o‘tkazildi

o‘tgan yili davlat xizmatlaridan 12 million aholi foydalandi

raqamlashtirish natijasida 70 dan ortiq turdagi ma’lumot va hujjatlarni aholidan talab qilish bekor bo‘ldi

so‘nggi ikki yilda 215 ta IT-ta’lim markazlari ochildi

2022 yilda IT-park rezidentlari 5 trillion so‘mlik xizmatlar ko‘rsatgan, 140 million dollarlik xizmatlarni eksport qilindi

“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida yosh dasturchilar tayyorlash ishlari olib borilmoqda, hozirda IT-parklar mutaxassislarining ko‘pchiligi shu dasturni tamomlagan yoshlar hisoblanadi.

yoshlarni “Coursera” platformasi orqali o‘qitish tashkil etilib, ular orasidan eng iqtidorlilari tanlab olinib, alohida dastur asosida xalqaro IT-bozor uchun tayyorlanadi.

jismoniy va yuridik shaxslarga davlat organlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik bilan foydalangan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimidirboshqaruvi organlarida barcha ichki va tashqi aloqalarni axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari bilan qo‘llab-quvvatlash va ta‘minlash tizimidir. U jumladan quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

davlat boshqaruvining axborotni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, uzatishning raqamli texnologiyalarga asoslangan axborot-kommunikatsiya ta‘minoti;

davlat hokimiyati organlarining barcha toifadagi fuqarolarga elektron vositalar orqali interaktiv xizmat ko‘rsatishi;

- davlat organlarining faoliyati to‘g‘risida fuqarolarga elektron vositalar orqali xabar berish va b. davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta‘minlash, ularning mas‘uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik sub‘ektlari bilan axborot almashishni ta‘minlashning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish;

ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratish;

davlat organlarining ma‘lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish;

aholi va tadbirkorlik sub‘ektlari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi va ularning ma‘lumotlar bazalari o‘rtasida «bir darcha» prinsipini joriy etish;

tadbirkorlik sub‘ektlarini statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o‘tkazish;

tadbirkorlik sub‘ektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

naqd bo‘lmagan elektron to‘lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish. davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;

elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi;

«bir darcha» prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish;

davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish;

elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish;

elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish;

axborot xavfsizligini ta'minlash. Markaz "Raqamli hukumat" tizimi doirasida axborot - kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali va shaffof mexanizmlarini yaratuvchi, shuningdek, ushbu sohadagi loyihalar, loyiha va texnik hujjatlarni sifatli ekspertizadan o'tkazishni ta'minlaydi.

Markaz "Raqamli hukumat" tizimini va "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturini rivojlantirish doirasida raqamli iqtisodiyot va "Raqamli hukumat" tizimini takomillashtirish sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradi, xususan:

raqamli hukumatni rivojlantirishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash

davlat organlari va tashkilotlarida raqamli rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish

davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomining yagona idoralararo elektron tizimini joriy etish

raqamli hukumat sohasidagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirish bosqichlarini muvofiqlashtirish. EGDI indeksi 0,8943 dan 0,9717 gacha

Daniya

Finlyandiya

Koreya Respublikasi

Yangi Zelandiya

Shvesiya

Islandiya

Avstraliya

Estoniya

Gollandiya

AQSh

Buyuk Britaniya

Singapur

Birlashgan Arab Amirliklari

Yaponiya

Malta

28. Kazaxstan (0,8628)

69. Uzbekistan (0.7265)

Birlashgan Arab Amirliklari EGDI indeksi bo'yicha eng yuqori reyting sinfiga kirgan E-hukumatni rivojlantirish bo'yicha dunyoning eng ilg'or davlatlaridan hisoblanadi.

Bu davlat telekommunikatsion xizmatlarga va raqamli moslashuvga ajratilgan investitsiyalar bo'yicha dunyoda 4 o'rinda.

Hukumat o'zini, sog'likni saqlash, ta'lim, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiyot va xavfsizlikni to'liq raqamlashtirishi sababli, jahonda 100% to'liq qog'ozsiz birinchi hukumat deb qaraydi.

Mamlakatdagi 589 ta maktabdan 525 tasi o'zini-o'zi baholash jarayonida qatnashib, ularni «aqlli» maktab shakliga keltirdi.

Hukumat hozirgi kunda 500 ta tezkor va sodda onlayn xizmatini ko'rsatadi.

Masalan, oilaviy ruyxatdan o'tish 3 kundan bir necha daqiqiqa kamaygan, biznesni qayd etishni raqamlashtirish ariza beruvchilarning 10 mln. va xodimlarning 45600 soat vaqtini tejash imkonini bergan.

Qozog'iston dengizga chiqish yo'li bo'lmagan rivojlanayotgan davlatlar ichida eng yuqori EGDI ko'rsatkichiga erishgan va «Raqamli Qozog'iston» dasturi doirasida keng ko'lamdagi ishlarni olib bormoqda.

Oxirgi yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha juda katta ishlarni amal oshirgan.

2018 yilda 55 ta qishloq aholi punktlarida yashaydigan 100 000 nafar kishi optik tolali Intergnetga ulangan, 2020 yilga kelib, hukumat 741 ta qishloq aholi punktlariga optik tolali liniyalarini tortishi natijasida xizmat ko'rsatilayotganlar soni 800 000 nafarga yetgan.

Transport i logistika sektorlari raqamlashtirilib, yo'l harakatining intellektual tizimi yaratilgan hamda avtoyo'l aktivlarini raqamli texnologiyalar asosida nazorat qilish dasturi tadbiiq etilgan.

Asosiy raqamli transformatsiya texnologiyalarini yaratish va joriy etish buyicha vazifalar:

rivojlangan IT-sanoatini yaratish;

keng polosali internetni aholining barcha qatlamlariga qadar yetkazish;

narsalar (jixozlar) interneti (Internet of Things, IoT)ni rivojlantirish;

robototexnika;

qo'shimcha reallik (Augmented Reality, AR);

virtual reallik (Virtual Reality, VR);

sun'iy intellekt (Artificial intelligence, AI) va mashina yordamida o'qitish (Machine Learning, ML);

additiv (texnologiyalar) - 3D-chop etish;

bulutli texnologiyalar;

uchuvchisiz va mobil texnologiyalar;

biometrik texnologiyalar;

kvant-, nanotexnologiyalari;

blokcheyn va x.o.

Mamlakatimizda davlat boshqaruvini, iqtisodiyot sohaslarini raqamli transformatsiya qilish borasida ayrim loyihalar:

Kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni yagona shaxsiy hisobvaraqlar orqali amalga oshirishni joriy etish;

«Tashqi iqtisodiy faoliyat portali» axborot tizimini takomillashtirish;

«Suv hisobi» axborot tizimini yaratish;

«Suv xo'jaligi ob'ektlari» axborot tizimini yaratish;

O'rmon fondi yerlari ma'lumotlarini geofazoviy ma'lumotlar asosida yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish imkoniyatini beruvchi «Smart forestry» axborot tizimini ishlab chiqish;

FNIR (Fast Nealthcare Interoperability Resources) xalqaro standarti asosida respublika raqamli sog'liqni saqlashning yagona platformasini yaratish;

«Elektron ta'lim» platformasini yaratish;

Ona va bola salomatligi pasportining elektron tizimini yaratish;

Favqulodda vaziyatlar vazirligining elektron tizimini joriy etish;

«Arxiv ishi» yagona axborot tizimi (my.archive.uz)ning mobil ilovasini ishlab chiqish va joriy etish;

Yer hisobotini yuritish bo'yicha «YER NISOBOT» avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish;

«Onlayn mahalla» elektron platformasini takomillashtirish;

Geoaxborot tizimi negizida Yer degradatsiyasi geoportalini ishlab chiqish;

“Raqamli hukumat — 2030” strategiyasini ishlab chiqish va b.

Elektron hukumatni tadbiq etish muammolari:

- aholi, korxonalar va xududlar o'rtasidagi raqamli tengsizlik;
- foydalanuvchilarning bilimlari yetishmasligi;
- tizimning foydalanishda sodda va qulay emasligi;
- raqamlashtirishni rag'batlantirishlarning yetishmasligi;
- ishonchning yetishmasligi, eskicha fikrlash;
- raqamlashtirish bo'yicha bilimlarning yetishmasligi;
- moliyaviy resurslarning cheklanganligi;
- korrupsiya.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 18 maydagi, PQ-4321-sonli Qarori.

2. “Raqamli o‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi Pf-6079-sonli farmoni.

3. Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. Post-pandemic perspectives for the development of digitalization in Uzbekistan. International Journal of Management, IT & Engineering Vol. 12 Issue 9, September 2022, ISSN: 2249-0558 Impact Factor: 7.119 Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, Email: editorijmie@gmail.com Double-Blind Peer Reviewed Refereed Open Access International Journal - Included in the International Serial Directories Indexed & Listed at: Ulrich's Periodicals Directory ©, U.S.A., Open J-Gate as well as in Cabell's Directories of Publishing Opportunities, U.S.A.

4. Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS) Available online at: <http://euroasiapub.org> Vol. 12 Issue 09 September- 2022 ISSN: 2249-7382 Impact Factor: 8.018|.

5. Aman Kenjabaev, Azamat Davletyarov, Dilmurod Suyunov. Digitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development Volume 12, Feb., 2023 ISSN (E): 2751-1731 Website: www.sjird.journalspark.org.

6. Aman Kenjabaev, Borikhon Ganikhodzhaev, Dilmurod Suyunov, Akbar Kuvandikov. Development of the digital economy in Uzbekistan and its main directions. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 14, March, 2023.